




O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
PREZIDENTI HUZURIDAGI
STATISTIKA AGENTLIGI

SURXONDARYO VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOTLAR



2024-yil 1-dekabr holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz)

Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi Davlat xizmatlari markazi ma'lumotlar bazasi asosida shakllantirildi



KORXONA VA TASHKILOTLAR FAOLIYATINING UMUMIY TAVSIFI


So'nggi yillarda hukumatimiz tomonidan mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va bunyodkorlik salohiyatini qo'llab-quvvatlash orqali aholiga munosib hayot sharoitlarini yaratish, ishbilarmonlik muhitini yaxshilash, bandlikni ta'minlash bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirib kelinmoqda. Xususan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mamlakatimiz iqtisodiyotining asosiy bo'g'ini hisoblanib, bugungi kunda mazkur sohani jadallik bilan rivojlantirish, tadbirkorlar faoliyatini qo'llab-quvvatlash, ularning safini yanada kengaytirish va rag'batlantirish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilyapti.

Jumladan, 2024-yil 1-dekabr holatiga viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning soni fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari 25 290 tani tashkil etdi, ulardan kichik korxona va mikrofirmalar 21 287 ta.

Shuningdek, ushbu davrga 38 504 ta korxona ro'yxatdan o'tib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 105,6 foizni tashkil etdi.

Korxona va tashkilotlar soni to'g'risida umumiylumotlar

(1-dekabr holatiga)



1- BO'LIM. SURXONDARYO VILOYATI BO'YICHA KORXONA VA TASHKILOTLARNING SONI

Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar (2024-yil yanvar-noyabr holatiga)

2024-yil yanvar-noyabr oylarida viloyatda yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni 4 744 tani tashkil etdi.

Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni o'tgan yilning mos davriga nisbatan sezilarli o'sishi kuzatilmoqda. Jumladan: Termiz tumanida (239 taga), Termiz shahrida (200 taga) va Jarqo'rg'on tumanida (185 taga) o'sish mavjud. Tarmoqlar kesimida esa eng yuqori ko'rsatkichni sanoat – 445 taga, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 215 taga va savdo sohasida – 214 taga ko'paygani bilan izohlash mumkin.


Yillar kesimida soni (birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)




(2024-yil 1-dekabr holatiga)

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 2024-yil 1-dekabr holatiga 25 290 tani tashkil etdi, ulardan 21 373 tasi tadbirkorlik subyektlari.

Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: savdo - 32,9 foiz, sanoat - 13,5 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi - 9,8 foiz, qurilish - 8,2 foiz, hududiy kesimda esa eng ko'pi Termiz shahrida - 16,8 foiz, tumanlardan Denov - 12,0 foiz, Jarqo'rg'on - 7,6 foiz, Sherobod - 6,9 foiz va Sho'rchida - 6,8 foiz faoliyat ko'rsatmoqda.


Yillar kesimida soni (birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)



(2024-yil yanvar-noyabr holatiga)

Davlatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlariga qulay shart-sharoitlar yaratib borish bo‘yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida ularning yildan-yilga investitsiya va ishbilarmonlik muhiti yaxshilanib borayotgani namoyon bo‘lmoxda. 2024-yil yanvar-noyabr oylarida yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari soni 4 632 ta bo‘lib, shundan:

- mikrofirmalar va kichik korxonalar 4 625 ta;
- yirik korxonalar 7 tani tashkil etdi.

Yillar kesimida soni

(birlikda)

4 632

2024

2023

3 640

3 845

2022

2021

4 810

7 154

2020

Hududlar kesimida soni

(birlikda)

Termiz sh.

863

514

Denov t.

Jarqo‘rg‘on t.

464

397

Termiz t.

Sho‘rchi t.

361

264

Sherobod t.

Qiziriq t.

257

256

Qumqo‘rg‘on t.

Oltinsoy t.

254

237

Angor t.

Sariosiyo t.

214

163

Muzrabot t.

Boysun t.

140

140

Uzun t.

Bandixon t.

108

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni

(birlikda)



69
Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish

110
Axborot va aloqa

410
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar

605
Qishloq, o'rmon va baliqchilik

82
Tashish va saqlash

1 015
Sanoat

196
Qurilish

1 812
Savdo


333
Boshqalar

(2024-yil 1-dekabr holatiga)

Faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni 2024-yil 1-dekabr holatiga 21 373 tani tashkil etdi, ulardan 21 287 tasi kichik korxona va mikrofirmalar.

Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: savdo - 38,9 foiz, sanoat - 15,9 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi - 11,4 foiz, qurilish - 9,7 foiz, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar - 7,8 foiz, tashish va saqlash - 3,0 foiz, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish - 1,9 foiz, axborot va aloqa - 1,7 foiz, boshqa turlari - 9,7 foiz.


Yillar kesimida soni (birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)




(2024-yil yanvar-noyabr holatiga)

Mamlakat iqtisodiyoti “sog‘lomligi”ni baholashning muhim omili-kichik biznes subyektlarining samarali faoliyat ko‘rsatishi bo‘lib, bu uning moslashuvchanligi va doimiy o‘zgaruvchan iqtisodiy vaziyatlarga moslasha olish ko‘rsatkichidir.

Shunda, 2024-yil yanvar-noyabr oylarida sanoatda yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari soni 2023-yilning mos davriga nisbatan 586 tadan 1 015 taga (o‘sish 429 taga), qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida 389 tadan 605 taga (o‘sish 216 taga) ko‘paydi.


Yillar kesimida soni (birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)


Termiz sh.	861
Denov t.	514
Jarqo‘rg‘on t.	461
Termiz t.	397
Sho‘rchi t.	360
Sherobod t.	263
Qiziriq t.	257
Qumqo‘rg‘on t.	256
Oltinsoy t.	254
Angor t.	237
Sariosiyo t.	214
Muzrabot t.	163
Boysun t.	140
Uzun t.	140
Bandixon t.	108

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)



(2024-yil 1-dekabr holatiga)

Hududlar kesimda eng ko'p kichik biznes subyektlari Termiz shahrida (17,3 foiz), Denov (12,1 foiz), Jarqo'rg'on (7,7 foiz), Termiz (7,1 foiz) va Sherobod (7,0 foiz) tumanlarida faoliyat ko'rsatmoqda. Ushbu hududlarda jami kichik biznes subyektlari sonining 50 foizdan ortig'i faoliyat ko'rsatmoqda. Ma'lumki, ayni paytda kichik biznes subyektlari iqtisodiyotning deyarli barcha tarmoqlarida ilg'or faoliyat yuritmoqda.




2- BO'LIM. KORXONA VA TASHKILOTLARNING IQTISODIY FAOLIYAT TURLARI BO'YICHA MA'LUMOTLAR

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar (2024-yil 1-dekabr holatiga)

Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar – qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchi, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga xizmat qiluvchi, xo'jalik yuritish jarayonida yuridik shaxs huquqiga ega xo'jalik yurituvchi subyekt hisoblanadi.

Hududlar bo'yicha qishloq, o'rmon va baliqchilik faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlarning eng ko'p qismi Sherobod (13,5 foiz), Denov (10,9 foiz) va Jarqo'rg'on (9,2 foiz) tumanlarida faoliyat ko'rsatmoqda.



Sanoat sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar

(2024-yil 1-dekabr holatiga)


Sanoat – iqtisodiy tarmoqlar ichida eng yuqori salohiyatga ega bo'lgan tarmoqlardan hisoblanadi.

Sanoat korxonalarini jami korxona va tashkilotlarning 13,5 foiz ulushini tashkil etdi. Shundan – 94,6 foizini ishlab chiqarish sanoati, 2,8 foizini tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, 2,1 foizini suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish va 0,5 foizini elektr, gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash tashkil etgan.

**Hududlar kesimida soni
(birlikda)**

Termiz sh.	467
Denov t.	416
Sho'rchi t	286
Qumqo'rg'on t.	250
Sariosiyo t.	247
Jarqo'rg'on t.	239
Sherobod t.	215
Angor t.	197
Uzun t.	194
Termiz t.	186
Boysun t.	175
Muzrabot t.	167
Oltinsoy t.	166
Qiziriq t.	143
Bandixon t.	75

**Yillar kesimida soni
(birlikda)**



Ishlab chiqarish sanoati



Tog'-kon sanoati va
ochiq konlarni ishlash



Suv bilan ta'minlash kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish



Elektr, gaz, bug' bilan
ta'minlash va havoni
konditsiyalash




(2024-yil 1-dekabr holatiga)



O'zbekistonda qurilish sanoati iqtisodiyotning ustuvor tarmog'i sifatida belgilangan. Qurilish sanoatining yo'nalishlari bo'yicha o'tkazilgan tahlil shuni ko'rsatdiki:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 56,7 foiz ulushni tashkil etdi;
- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishidagi korxonalar soni 21,7 foiz ulushni tashkil etdi;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishidagi korxonalar soni esa 21,6 foiz ulushni tashkil etdi.

**Hududlar kesimida soni
(birlikda)**



**Yillar kesimida soni
(birlikda)**



Bino va
inshootlar qurish

1 172



Fuqarolik
obyektlarini qurish

453

Ixtisoslashtirilgan
qurilish ishlari



(2024-yil 1-dekabr holatiga)

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan har uchinchi korxona savdo sohasida faoliyat yuritadi, ularning 99,9 foizi yoki 8 304 tasi kichik biznes subyektlariga to'g'ri keladi.


Savdo sohasining yo'nalishlar bo'yicha taqsimoti quyidagicha:

- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo yo'nalishi 61,5 foiz ulushni tashkil etdi;
- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo yo'nalishida 27,6 foiz ulushni tashkil etdi;
- avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash yo'nalishida 10,9 foiz ulushni tashkil etdi

Hududlar kesimida soni (birlikda)

Termiz sh.	1 304
Denov t.	1 133
Jarqo'rg'on t.	651
Sho'rchi t.	635
Termiz t.	590
Qumqo'rg'on t.	565
Sherobod t.	522
Angor t.	505
Qiziriq t.	405
Oltinsoy t.	403
Sariosiyo t.	384
Uzun t.	377
Muzrabot t.	326
Bandixon t.	258
Boysun t.	256

Yillar kesimida soni (birlikda)



5 111

Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo

2 297

Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo

906

Avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash

(2024-yil 1-dekabr holatiga)

**Hududlar kesimida soni
(birlikda)**


Termiz sh.	151
Denov t.	105
Sherobod t.	55
Jarqo'rg'on t.	49
Sho'rchi t.	44
Qumqo'rg'on t.	38
Termiz t.	37
Qiziriq t.	35
Oltinsoy t.	29
Angor t.	27
Muzrabot t.	22
Sariosiyo t.	20
Uzun t.	17
Boysun t.	16
Bandixon t.	4

2024-yil 1-dekabr holatiga ko'ra, tashish va saqlash xizmatlari sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar jami viloyatdagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonaning 2,6 foiz ulushini tashkil etdi.

Tashish va saqlash xizmatlarining yo'nalishlari bo'yicha tahlillar shuni ko'rsatdiki:

- quruqlikdagi va quvur transporti yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning soni 69,3 foizni tashkil etdi;
- ombor xo'jaligi va yordamchi transport yo'nalishining korxonalar soni 28,2 foizni;
- pochta va kuryerlik yo'nalishidagi korxonalar soni 2,2 foizni;
- havo va suv transporti yo'nalishidagi korxonalar soni 0,3 foizni tashkil etgan.

**Yillar kesimida soni
(birlikda)**



(2024-yil 1-dekabr holatiga)

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni 2024-yil 1-dekabr holatiga 1 679 taga yetib, ularning 1 671 tasi kichik biznes subyektlariga to'g'ri keladi.

Ushbu xizmatlar sohasi tahlili shuni ko'rsatdiki:


mehmonxonalar, turistik oromgohlar, dam olish va ko'ngilochar parklar yashash bo'yicha xizmatlar yo'nalishining asosiy faoliyati hisoblanib, 2024-yil 1-dekabr holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning 7,9 foiz ulushini tashkil etdi;

restoran va buyurtma bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlarini yetkazish, oziq-vqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar yo'nalishining asosi hisoblanib, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasining 92,1 foiz ulushini tashkil etdi.

**Hududlar kesimida soni
(birlikda)**

Termiz sh.	388
Denov t.	197
Sariosiyo t.	122
Sherobod t.	115
Sho'rchi t.	114
Termiz t.	111
Jarqo'rg'on t.	107
Boysun t.	95
Qumqo'rg'on t.	83
Muzrabot t.	81
Angor t.	76
Uzun t.	70
Oltinsoy t.	51
Qiziriq t.	38
Bandixon t.	31

**Yillar kesimida soni
(birlikda)**



(2024-yil 1-dekabr holatiga)

2024-yil 1-dekabr holatiga kompyuter dasturlash va aloqa bo'limida korxona va tashkilotlar soni, axborot va kommunikatsiyalar sohasida faoliyat yuritayotgan korxona va tashkilotlar umumiy sonining 68,0 foizini;


Ko'rsatuvlar va teleradioeshittirishlar yaratish hamda kino, videofilmlar, teledasturlar, fonogrammalar va yozuvlar ishlab chiqarish yo'nalishlarida faoliyat yuritayotgan korxonalar soni esa 2,5 foizni;

Axborot xizmatlari va noshirlik faoliyatini rivojlantirish bo'limida faoliyat yurituvchi korxonalar soni 29,5 foizini tashkil etdi.

**Hududlar kesimida soni
(birlikda)**

Termiz sh.	118
Denov t.	45
Jarqo'rg'on t.	27
Sho'rchi t.	24
Qiziriq t.	20
Oltinsoy t.	19
Boysun t.	15
Bandixon t.	14
Uzun t.	12
Angor t.	12
Muzrabot t.	12
Termiz t.	12
Sherobod t.	11
Qumqo'rg'on t.	9
Sariosiyo t.	9

**Yillar kesimida soni
(birlikda)**



Kompyuter dasturlashtirish,
maslahat berish va boshqa
yordamchi xizmatlar

151

93

Aloqa



Noshirlik faoliyati

57

49

Axborot xizmati
ko'rsatish
sohasidagi faoliyati



Kino-videofilmlar, televizion
dasturlar, fonogrammalar va
musiqali yozuvlarni ishlab chiqish

7

2

Dasturlar yaratish bo'yicha
faoliyat va teleko'rsatuv
va radioeshittirish



(2024-yil 1-dekabr holatiga)

Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan jami korxona va tashkilotlarning salmoqli qismi – 408 ta yoki 85,5 foiz ulushi tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri kelgan.

Yo'nalishlar bo'yicha tahlil shuni ko'rsatdiki:

ushbu sohadagi korxonalar sonining 96,4 foizi sog'liqni saqlash yo'nalishidagi korxonalar soni 2,5 foizni tashkil etdi;

yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish yo'nalishidagi korxonalar soni ushbu sohaning 1,1 foizini tashkil etdi.


Hududlar kesimida soni

(birlikda)

Termiz sh.	140
Denov t.	71
Sherobod t.	34
Sho'rchi t.	31
Qumqo'rg'on t.	28
Jarqo'rg'on t.	27
Sariosiyo t.	21
Angor t.	20
Uzun t.	20
Qiziriq t.	18
Oltinsoy t.	17
Termiz t.	17
Boysun t.	13
Muzrabot t.	12
Bandixon t.	8

Yillar kesimida soni

(birlikda)



Sog'liqni saqlash
sohasidagi
faoliyat

Yashash uchun joy
bilan ta'minlangan
holda parvarishlash

12

Yashash uchun joy bilan
ta'minlanmagan
holda ijtimoiy
xizmatlar ko'rsatish

5

**Faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha umumiy ma'lumot
(2024-yil 1-dekabr holatiga)**

Tashkiliy-huquqiy shakl deganda, subyekt tomonidan mulkning biriktirilishi, shakllantirilishi va undan foydalanish usuli hamda uning bundan kelib chiquvchi huquqiy holati va faoliyat maqsadi tushuniladi. Shuningdek, quyidagilar bilan bog'liq masalalarni hal qilishda foydalaniladi:

- xo'jalik yurituvchi subyektlar to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan registr, reyestr va kadastrlarning axborot resurslarini shakllantirish;
- tashkiliy-huquqiy shakllar doirasida statistika ma'lumotlarini ishlab chiqish;
- idoralararo axborot almashinishini ta'minlash;
- ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni va hodisalarni tahlil qilish va prognozlashtirish.

Faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni (birlikda)

Tadbirkorlik subyektlarining jamiga nisbatan ulushi (foizda)

12 330

mas'uliyati cheklangan jamiyat

57,7

4 810

xususiy korxonalar

22,5

3 977

oilaviy korxonalar

18,6

16

aksiyadorlik jamiyatি

0,1

240


boshqalar

1,1

(2024-yil yanvar-noyabr holatiga)

Mas'uliyati cheklangan jamiyat – bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyatni hisoblanadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatları bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zları qo'shgan hissalari qiymati doirasida javobgar bo'ladilar. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagan ishtirokchilari, jamiyat majburiyatları bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismi qiymati doirasida solidar javobgar bo'ladilar.

**Yillar kesimida soni
(birlikda)**



**Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni
(birlikda)**



Hududlar kesimida soni (birlikda)

Termiz sh.	683	Angor t.	164
Termiz t.	344	Sherobod t.	158
Denov t.	303	Boysun t.	102
Jarqo'rg'on t.	279	Muzrabot t.	88
Sho'rchi t.	270	Sariosiyo t.	74
Qumqo'rg'on t.	211	Bandixon t.	69
Qiziriq t.	179	Uzun t.	42
Oltinsoy t.	173		

(2024-yil 1-dekabr holatiga)

Amaldagi 21 373 ta tijorat korxona va tashkilotlaridan 2024-yil 1-dekabr holatiga ma'suliyati cheklangan jamiyatlar 12 330 tani tashkil etib, tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha korxonalar orasida birinchi o'rinda turadi. Shuni xulosa qilishimiz mumkinki, mazkur korxonalar mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyatining eng ko'p tarqalgan shakli hisoblanadi.

Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: savdo – 38,2 foiz, sanoat – 13,5 foiz, qurilish – 12,7 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 12,2 foiz.

**Yillar kesimida soni
(birlikda)**

12 330 2024

2023 11 741

2022 13 672

2021 11 436

2020 9 171

Hududlar kesimida soni (birlikda)

Termiz sh.

2 768

Boysun t.

555

Denov t.

1 292

Qiziriq t.

552

Termiz t.

1 051

Sariosiyo t.

506

Jarqo'rg'on t.

919

Muzrabot t.

468

Sherobod t.

852

Oltinsoy t.

459

Sho'rchi t.

804

Uzun t.

355

Qumqo'rg'on t.

798

Bandixon t.

294

Angor t.

657

**Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni
(birlikda)**



1 507

Qishloq, o'rmon va
baliqchilik xo'jaligi



1 662

Sanoat



1 563

Qurilish



4 713

Savdo



507

Tashish
va saqlash



587

Yashash va ovqatlanish
bo'yicha xizmatlar



223

Axborot
va aloqa



224

Sog'liqni saqlash va
ijtimoiy xizmatlar
ko'rsatish



1 344


Boshqa turlar

(2024-yil yanvar-noyabr holatiga)

Xususiy korxona – mulkdor yagona jismoniy shaxs tomonidan tuzilgan va boshqariladigan tijoratchi tashkilot deb e’tirof etiladi. Xususiy korxona tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shaklidir.

Xususiy korxona o‘z mulkida alohida mol-mulkka ega bo‘ladi, o‘z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo‘lishi hamda ularni amalga oshirishi, majburiyatlarni bajarishi, sudda da’vogar va javobgar bo‘lishi mumkin.

Yillar kesimida soni (birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)




Hududlar kesimida soni (birlikda)

Uzun t.	67	Qiziriq t.	17
Sariosiyo t.	59	Bandixon t.	16
Denov t.	47	Oltinsoy t.	9
Sherobod t.	41	Qumqo‘rg‘on t.	9
Termiz sh.	40	Termiz t.	6
Sho‘rchi t.	40	Angor t.	6
Muzrabot t.	31	Boysun t.	3
Jarqo‘rg‘on t.	25		

(2024-yil 1-dekabr holatiga)

2024-yil 1-dekabr holatiga tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni o'zaro taqqoslanganda, ikkinchi o'rinni xususiy korxonalar egallagan. Xususiy korxonalar sonining eng ko'pi quyidagi hududlarda qayd etilgan. Denov tumanida – 713 ta, Termiz sh – 627 ta va Uzun tumanida – 455 ta. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha esa xususiy korxonalar quyidagicha taqsimlangan savdo sohasida – 2 144 ta, sanoat – 699 ta, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida – 460 ta va qurilish sohasida – 430 ta.

Yillar kesimida soni (birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)

Denov t.	713
Termiz sh.	627
Uzun t.	455
Sariosiyo t.	388
Jarqo'rg'on t.	367
Sho'rchi t.	352
Qumqo'rg'on t.	312
Sherobod t.	285

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)



(2024-yil yanvar-noyabr holatiga)


Oilaviy korxonaning ishtirokchilari tomonidan tovarlar ishlab chiqarish (ishlar bajarish, xizmatlar ko‘rsatish) va realizatsiya qilishni amalga oshirish uchun ixtiyoriy asosda, oilaviy korxona ishtirokchilarining ulushli yoki birgalikdagi mulkida bo‘lgan umumiy mol-mulk, shuningdek, oilaviy korxona ishtirokchilaridan har birining mol-mulki negizida tashkil etiladigan kichik tadbirkorlik subyektiidir.

Oilaviy korxona faoliyati uning ishtirokchilari shaxsiy mehnatiga asoslanadi va tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakllaridan biridir.

Yillar kesimida soni (birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)

Denov t.	164	Sho‘rchi t.	50
Jarqo‘rg‘on t.	160	Termiz t.	47
Termiz sh.	140	Muzrabot t.	44
Sariosiyo t.	81	Qumqo‘rg‘on t.	34
Oltinsoy t.	72	Boysun t.	34
Angor t.	67	Uzun t.	30
Sherobod t.	65	Bandixon t.	23
Qiziriq t.	57		


(2024-yil 1-dekabr holatiga)

Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tib, faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 2024-yil 1-dekabr holatiga ko'ra 3 977 tani tashkil etdi.

Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiyl sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: savdo – 36,1 foiz, sanoat – 25,2 foiz, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar – 15,7 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 13,3 foiz, hududiy kesimda esa eng ko'pi Denov – 13,9 foiz, Jarqo'rg'on – 8,9 foiz va Sherobod – 8,5 foiz tumanlarida faoliyat ko'rsatmoqda.

Yillar kesimida soni

(birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni

(birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)

Denov t.	552
Jarqo'rg'on t.	354
Sherobod t.	339
Sho'rchi t.	284
Termiz sh.	283
Oltinsoy t.	267
Angor t.	255
Sariosiyo t.	249

Qumqo'rg'on t.	247
Qiziriq t.	215
Uzun t.	211
Boysun t.	206
Termiz t.	205
Muzrabot t.	178
Bandixon t.	132

(2024-yil yanvar-noyabr holatiga)




Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va bu sohalarda xizmat ko'rsatish

Mavsumiy va ko'p yillik ekinlar yetishtirish, chorvachilik, ovchilik va dehqonchilik bu bo'limning asosiy yo'nalishlari bo'lib, fermer xo'jaliklarining ulushi yangi tashkil etilgan fermer xo'jaliklari umumiyl sonining 100,0 foizini tashkil etadi

Hududlar kesimida soni (birlikda)

Oltinsoy t.	5
Muzrabot t.	3
Jarqo'rg'on t.	2
Sariosiyo t.	2
Sho'rchi t.	2
Qumqo'rg'on t.	1
Uzun t.	1
Boysun t.	1

Yillar kesimida soni (birlikda)



(2024-yil 1-dekabr holatiga)


O'zbekiston Respublikasida mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan qishloq xo'jaligini rivojlantirishning chuqur o'ylangan strategiyasi izchil amalga oshirilmoqda. Davlatimiz iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarining muhim tarkibiy qismalaridan biri meva-sabzavot yetishtirishga qaratilgan. Bunday yondashuv aholi ehtiyojlarini to'liq ta'minlash, ularning salomatligini saqlash va bandlik shart-sharoitlarini yaratishda asosiy yo'nalishlardan biriga aylandi.

Hududlar bo'yicha fermer xo'jaliklarining salmoqli qismi Oltinsoy (13,7 foiz), Denov (13,3 foiz) va Sherobod (9,5 foiz) tumanlariga to'g'ri keladi.

Hududlar kesimida soni (birlikda)

Oltinsoy t.	882
Denov t.	858
Sherobod t.	611
Sariosiyo t.	603
Qumqo'rg'on t.	560
Sho'rchi t.	438
Uzun t.	429
Boysun t.	394
Muzrabot t.	389
Jarqo'rg'on t.	338
Bandixon t.	304
Termiz t.	289
Angor t.	223
Qiziriq t.	111
Termiz sh.	1

Yillar kesimida soni (birlikda)



4- BO'LIM. CHET EL INVESTITSIYASI ISHTIROKIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR TO'G'RISIDA MA'LUMOTLAR

Yangi tashkil etilgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot (2024- yil yanvar-noyabr holatiga)

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar – korxonaning ustav jamg'armasida norezidentlar, chet el yuridik shaxslari (chet el firmalarining filial va bo'linmalari), chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'limgan shaxslar mulki ishtirokidagi korxonalar hisoblanadi.

Mamlakatimizda xalqaro iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish bo'yicha olib borilayotgan jadal ishlar natijasida, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning soni sezilarli darajada oshib borayotganligini ko'rshimiz mumkin.

2024-yil yanvar-noyabr oylarida chet el investitsiyalari ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni o'sish sur'ati 2023-yilning mos davri bilan solishtirilganda 3,8 martaga oshgan.

Yillar kesimida soni (birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)

Termiz t.	140	Bandixon t.	2
Termiz sh.	58	Qiziriq t.	2
Denov t.	8	Jarqo'rg'on t.	1
Boysun t.	5	Sho'rchi t.	1
Sariosiyo t.	3	Qumqo'rg'on t.	1
Angor t.	2	Oltinsoy t.	1
Uzun t.	2		

(2024-yil 1-dekabr holatiga)

O'zbekistonning yangi tashqi siyosatini asosiy xususiyatlari bu ochiqlik, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga e'tibor berish, qo'shni davlatlar bilan yaxshi qo'shnichilik munosabatlarini mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni beg'araz asosda kengaytirishdir.

Shuningdek, chet el investitsiyalari ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan 496 ta korxonalardan 71 tasi qo'shma korxonalar va 425 tasi xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keldi.

Yillar kesimida soni (birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)

Termiz sh.	208
Termiz t.	153
Uzun t.	19
Sariosiyo t.	18
Denov t.	17
Sho'rchi t.	12
Muzrabot t.	12
Angor t.	12

Boysun t.	12
Qiziriq t.	8
Bandixon t.	7
Qumqo'rg'on t.	6
Sherobod t.	5
Jarqo'rg'on t.	5
Oltinsoy t.	2

Bugungi kunda O'zbekiston iqtisodiyotining turli tarmoqlarida tadbirkorlik faoliyatini yuritish va investitsiyalarni jalb qilish uchun islohotlar amalga oshirilayotgani kuzatilmoqda.

Yetakchi o'rinni 332 ta korxonada to'liq yoki qisman ulushi mavjud bo'lgan Afg'oniston Islom Respublikasi egallagan. Bu viloyatda chet el investitsiyalari ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiyligi sonining 66,9 foiz ulushini tashkil etadi. Shuningdek, viloyat iqtisodiyotiga o'z kapitalini kiritayotgan Rossiya Federatsiyasi (ulushi 8,7 foiz), Tojikiston (ulushi 5,2 foiz), Turkiya (ulushi 3,2 foiz) hamda Xitoy (ulushi 2,8 foiz) davlatlari ham yetakchilar hisoblanishadi.


(2024-yil 1-dekabr holatiga)



Mamlakatimizda to'g'ridan to'g'ri investitsiyalarni jalb qilish uchun eng qulay investitsiya muhitini yaratish maqsadida iqtisodiyotni liberalallashtirish, tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga aralashuvni cheklash, litsenziyalash va ruxsat berish tartib-taomillarini qisqartirish va soddalashtirish, investitsiyalardan erkin foydalanishni ta'minlash shuningdek, hududlarda zarur infratuzilmani yaratish bo'yicha keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirildi. Natijada har yili xorijiy sarmoya ishtirokidagi korxonalar ko'payib bormoqda.

Hududlar kesimida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi faoliyat yuritayotgan korxonalarning jami soniga nisbatan eng katta ulushi Termiz shahriga - 41,9 foiz, tumanlar orasida esa Termiz – 30,9 foiz, Uzun – 3,8 foiz va Sariosiyoga - 3,6 foiz to'g'ri keladi.


(2024-yil 1-dekabr holatiga)



2024-yil 1-dekabr holatiga ko'ra, birlikda

qo'shma korxonalar

xorijiy korxonalar



So'nggi yillarda O'zbekiston iqtisodiyotni jadal o'zgartirishni boshdan kechirdi va xalqaro hamjamiyatda ochiqlik, innovatsiya va biznes va sarmoyaviy to'siqlarni bartaraf etishda qat'iylik timsollaridan biri sifatida tobora ko'proq e'tirof etilmoqda.

Demak, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonining ko'payishi, avvalambor, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining huquqiy asoslari takomillashtirilgani bilan bog'liq.

Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri – real vaqt rejimida yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan axborot-ma'lumotnoma tusidagi avtomatlashtirilgan tizim hisoblanib, yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrida mavjud bo'lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

Yangi tashkil etilgan – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

Kichik korxona va mikrofirmalar – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining **2016-yil 24-avgustdagি** "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" **275-son** qarorining 1-ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli bo'lgan korxonalar va tashkilotlar.

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar – norezidentlar ishtirokidagi korxonalar, xorijiy yuridik shaxslar (xorijiy firmalarning filiallari va bo'limlari), korxonaning ustav fondida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar ishtirok etgan korxonalar.

Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Davlat xizmatlari markazi ma'lumotlar bazasi asosida **2024-yil 1-dekabr** holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.



Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita O'zbekiston
Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining
www.stat.uz rasmiy saytida real vaqt rejimida,
so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib,
axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.



76-225-65-73

PRESS-RELIZ

